

## JALOLIDDIN RUMIY ASARLARIDA DO'STLIK VA SABR-TOQAT TARANNUMI

**Shoxsanam Saydulloyeva**

*O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika Instituti Boshlang'ich ta'lif nazariyasi  
kafedrasi assistenti*

**Saidahmatova Gulruk**

*Boshlang'ich ta'lif yo'naliши 2- kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Jamiyatdagi har bir insonda his-tuyg'ular va turli qarashlar mavjud bo'ladi. Ayrim his-tuyg'ular borki, shu tuyg'ular orqali u o'zligini tanib boradi. Bunga misol qilib sabr, qanoat, mehr, do'stlik tuyg'ularini olish mumkin. Ushbu maqola Mavlononing eng go'zal 99 haqiqatlarining mazmun mohiyati va uning hozirgi kundagi ahamiyati yoritilgan.*

**Annotation:** *Everyone in society has different feelings and views. There are certain feelings through which he recognizes himself. Examples of this are patience, satisfaction, love, and friendship. The content of 99 of the most important articles of this organization and its importance today are highlighted.*

**Kalit so'zlar:** *do'stlik, sabr, qanoat, hikmat, mehr, inson.*

Dunyoda haqiqiy do'stlikdan bebahoroq hech narsa yo'q. Uni hayotimizdan chiqarish – ichki dunyomizni quyoshsiz qoldirish bilan barobar, chunki do'stlik tabiatning eng go'zal va yoqimli in'omlaridan biridir. Do'stlik tuyg'usi har kimda ham bo'lavermaydi, haqiqiy do'stlik – bu ikki insonning ruhan birgaligi, bu ilohiy rishta insonni hayotning chirkin tomonidan yorug' tomoniga olib chiqadi.

Haqiqiy do'stlik – avval kulfat va musibatda sinaladi va shu asnoda mustahkamlana boradi. Turli maqola, matallarda afsona va etaklarda ham Do'stlik madhi kuylanadi. Mavlono Jaloliddin Rumiyning ham do'stlik haqida bir-biridan ma'noli hikmatli so'zlari borki, ularga misol qilib quyidagini keltirish mumkin: "Do'st achitib gapirgan emas, achchiqni shirin qilib so'zlay olgandir". Bizga do'st bo'lgan kishilar ya'ni yaqin insonlarimiz bizga doim yaxshilik, baxt tilovchi kishilar sanaladi shu sababdan ularga ko'p suyanamiz. Biz xato qilganimizda, noto'g'ri ish qilib qo'yganimizda achchiq so'z bilan emas, shu so'zlarni tushunarli va shirin qilib ayta oladigan, bizni ko'nglimizni og'ritmasdan tushuntira oladiganlar bizni haqiqiy do'starimiz hisoblanadi. Do'stlik barcha boylikdan afzal. Do'stlik shunday tuyg'uki, uni chin do'sti borlargina tushuna olishadi.

"Nuqson siz do'st izlagan do'stsiz qoladi". Hech kim mukammal emas, mukammal zot bu Allohdir. Nuqson siz insonning o'zi mavjud emas. Do'st tanlaganda uni boricha qabul qilish kerak. Chin ma'nodai do'st o'z do'stining nuqsonini berkitadi, uni to'g'rileydi. Ular bir-birlari uchun hamma narsaga tayyor, doimo bir-birlariga tirkak bo'lishadi. Har bir insonning eng yaqin do'stlari borligi bu uning eng katta boyligidir.

Sabr haqida Mavlono Jaloliddin Rumiy shunday hikmatli so'zлari bor. "Sabr og'riqlarni davolovchi achchiq malhamga o'xshaydi, jonne og'ritadi, biroq yarani davolaydi". Sabr bu g'am-kulfat, azob musibatlarga chidash, toqat qilish, o'z ixtiyori bilan nafshi tiyish, qanoatli bo'lishdir. Islomda to'gri yo'lidan adashmaslik uchun kishi o'z nafsi so'ndirish lozimligi ta'kidlanadi. Sabrli bo'lish muslimonlarning asosiy fazilatlaridan biri hisoblanadi. Sabr haqidagi Rumiyning yana bir hikmatli so'zлari bor. "Bir kun ochilmaydi degan gaplar ochiladi, ketmaydi degan dardlar ariydi, tugamaydi degan vaqtlar tugaydi". Vaqt – suv, sabr esa dori. Dori iste'moli suv orqali bo'ladi. vaqt o'taveradi, sabr qilgan va boriga shukr qilgan inson esa o'z nomai a'molini go'zal oqibatlar bilan berzaydi. Odamzot sabr qilishi orqali o'z maqsadlariga etishishi bilan bir qatorda o'z ajr-u mukofotlarini ham oladi. Har doim sabrli bo'lishi, hammasi yaxshi bo'lishiga ishonishi, dard va alamlarning o'tkinchi ekanligini anglashi uni sabrda mustahkam bo'lishini ta'minlaydi. Su qatorda sabe haqidagi go'zal maqol namunalari ham keltirishimiz mumkin: "Sabr tagi sariq oltin", "Oyning o'n beshi yorug", o'n beshi qorong'u", "Odob baxt topilar, sabr bilan – taxt" kabi maqollarni keltirishimiz mumkin. Har bir inson o'zini sabrli bo'lishiga ishonsa, o'z kuchiga, qanoatiga tayansa, albatta, barcha dardlari unutiladi.

"Agar seni ranjitgan odamga hali ham salom bera olayotgan bo'lsang, bu vijdoning sadaqasidir".

Sadaqa arabcha – hayr-ehson, bechorahol, qashshoq va muhtoj kishilarga beriladigan majburiy yoki ixtiyoriy hayr-ehson bu sadaqa hisoblanadi. Islomda sadaqa qilishga ko'p targ'ib qilinadi. Uning savobi, fazilati va foydasi to'g'risida Qur'on va hadislarda ta'kidlangan. Har qanday inson uchun sadaqa qilish uning farzi hisoblanadi. Agar sizga aziyat yetkazgan insonlarga hali ham salom bera olayotgan ekansiz, bu ularga siz tomoningizdan berilayotgan sadaqa, ya'ni hayr-ehson hisoblanadi. Bu kabi hikmatlardan juda ko'p ma'nolarni uqishimiz mumkin.

Mavlono jaloliddin Rumiyning bu kabi hikmatlarini qayta-qayta o'qiganimiz sari yangi ma'nolar ochilaveradi. Uning qimmati yillar o'tgani sari yanada qimmatlasha boradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mirzayeva G. Mavlonadan qalbga malham hikmatlar tasavvufiy hikoyalar. – Toshkent: "Yangi asr avlod" nashriyoti, 2022. 176 bet.  
ISBN 978-9943-20-984-8
2. Madvaliyev A, Xudayberanova D. O'zbek tilining izohli lug'ati: 80 000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. ISBN 978-9943-8834-9-9
3. Suvonqulova H. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent: "Adabiyot uchqunlari" nashriyoti, 2014. – 152 bet. ISBN 978-9943-4498-0-0
4. [www.ziyouz.uz](http://www.ziyouz.uz)
5. [www.ziyo.uz](http://www.ziyo.uz)